

Asosiy ko'rsatkichlari.

2017 yilning 1 yanvar holatiga bankning jami aktivlari o'tgan yilga nisbatan 41% ga o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlarni 66% tashkil qildi.

Bank kapitalining hajmi 2016 yil 1 yanvarga nisbatan 12% ga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6% oshgan holda, olingan sof foyda miqdori o'z navbatida 95,39 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

2017 yil 1 yanvar xolatiga "Asaka" bank aksiyadorlari ro'yxati

№	Aksiyadorlar nomi	Aksiyalar miqdori (dona)	Aksiyalar paketining nominal qiymati	Ulushi (%)da
1	O'z.R. Moliya vazirligi	251 221 140	279 378 005 371,20	54,14%
2	"Uzavtosanoat" AK	60 063 900	66 795 861 912,00	12,94%
3	O'z.R Tiklanish va taraqqiyot fondi	60 000 000	66 724 800 000,00	12,93%
4	"Olmalik TMK" AJ	28 291 923	31 462 881 729,84	6,10%
5	Buxoro NQIZ UK	25 333 966	28 173 396 909,28	5,46%
6	Navoiy TMK AJ	10 876 953	12 096 041 892,24	2,34%
7	"O'zbekiston temir yo'llari" DATYK	10 626 953	11 817 134 452,40	2,29%
8	"O'zbektelekom" AK	5 605 006	6 233 215 072,48	1,21%
7	Farg'ona NQIZ USHK	4 464 286	4 964 643 174,88	0,96%

8	“Uzmetkombinat” AJ	4 464 286	4 964 643 174,88	0,96%
11	"Uzagrosugurta" DASK	2 064 000	2 295 333 120,00	0,44%
12	"Uzbekinvest" NKEIS	518 400	576 502 272,00	0,11%
13	"Xalq Sugurta" MCHJ SK	522 000	580 505 760,00	0,11%
JAMI:		464 052 015	516 062 964 841,20	100 %

Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha.

2016 yil boshidan «Asaka» bank tomonidan 1 380,7 mlrd.so'm miqdorida uzoq muddatli investitsion loyihalar moliyalashtirilgan, shu jumladan iqtisodiyot sektorlari:

Sanoat – 215,8 mlrd.so'm.

Qishloq ho'jaligi – 120,9 mlrd.so'm.

Qurilish – 176,7 mlrd.so'm.

Transport va aloqa – 29,3 mlrd.so'm.

Ijtimoiy soha – 18,0 mlrd.so'm.

Boshqa maqsadlar – 166,2 mlrd.so'm.

Ushbu loyihalarni moliyalashtirish natijasida 14 512ta yangi ishchi o'rinlar barpo etilgan.

Shuningdek, «Asaka»bank tomonidan respublikaning barcha regionlarida aholini uy-joy qurilishi fondi bo'yicha podryad tashkilotlarga kredit ajratish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 454,9 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan, jumladan viloyatlar kesimida:

Andijon viloyati – 16,7 mlrd.so'm;

Kashkadaryo viloyati – 95,4 mlrd.so'm;

Ferg'ona viloyati – 42,05 mlrd.so'm;

Xorazm viloyati – 33,7 mlrd.so'm.

Qoraqalpog'iston Respublikasi- 134,0 mlrd.so'm.

Surxondaryo viloyati – 42,3 mlrd. so'm

Jizzax viloyati – 36,7 mlrd. so'm

Namangan viloyati – 8,9 mlrd. so'm

Sirdaryo viloyati – 6,0 mlrd. so'm

Toshkent sh.- 38,8 mlrd. so'm

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun 1 520,5 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,1 foizni tashkil qildi.

Jumladan, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 96,6 mlrd.so'mni, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari 129,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,0 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qarorlariga asosan oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 325,7 mlrd.so'mni va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 305,6 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, 2016 yil davomida ta'lim muassasalari bitiruvchilariga 15,0 mlrd.so'mdan ortiq kredit mablag'lari ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2016 yilning yanvar-dekabr oylari davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 3 400 nafarga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bank depozitlari bo'yicha

2017 yil 1 yanvar holatiga "Asaka" bankning jami aholi omonatlari qoldig'i miqdori o'tgan yilga nisbatan 136% ga oshgan, shundan muddatli omonatlar qoldig'i o'tgan yilga nisbatan 135% ga ortdi.

Bank bo'yicha jami 44 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 30 tasi milliy valyutadagi va 14 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

Jismoniy shaxslarning o'z omonatlari to'g'risida ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi "SMS-banking" xizmatidan foydalanuvchilari soni 2017 yil 1 yanvar holatiga 123 mingtadan oshib ketdi.

Savdo va pullik xizmat orqali tushum plastik karta bilan birga o'tgan yilga nisbatan 122% ga oshgan.

Kommunal xizmatlardan tushumlar plastik kartalar bilan birga o'tgan yilga nisbatan 103% ga oshgan.

Plastik kartochkalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.

Bank tomonidan 2017 yil 1 yanvar holatiga 1mln. 730 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 227ming donaga ko'paygan.

2017 yilning 1 yanvar holatiga bank tomonidan 11128ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 10 188 donani tashkil qiladi.